

INSON QOMATINI TURLI OBRAZLARDA TASVIRLASH VA ATROF-MUHIT BILAN BOG'LASHNING O'ZIGA XOS QONUN-QOIDALARI.

*Namangan davlat universiteti Pedagogika fakulteti
Tasviriy va amaliy san'at kaferdrasi katta o'qituvchisi
P.hD Sharipjonov Muhiddin Shokirjon o'g'li*

muhiddin.sharipjonov@gmail.com

*Namangan davlat universiteti Pedagogika va psixologiya
fakulteti Dastgohli rangtasvir 4-kurs talabasi*

O'rinnov Saddambek Botirjon og'li

Samir77997799@gmail.com

Annotatsiya: Tasviriy san'atda portret janrida ishlashda eng muhimi butasvirlanayotgan inson qomatining holati va uning mutanosibligidir. Inson qomatini tasvirlash uchun ijodkor talabalar ko'proq etyudlar qilishlari, nabroska va zarisofkalarni ko'proq tasvirlash ko'nikmalari shakllatirishlari lozim bo'ladi. Amaliy ishslash jarayonida asarni to'liq yoritib bera olish bu katta mahorat talab etiladi. Inson qomatini tasvirlashda eng avvalo inson plastik anatomiyasini to'g'ri tahlil etish, perspektiva qonunlari va rangtasvida rang gammalarini to'g'ri his etish juda muhim hisoblanadi. Shuningdek qonun qoidalar asosida tugallangan asar yartishda kompozitsiyaning turli unsurlariga e'tibor qarartib o'rganishlari talab etiladigan nazariy bilimlarni o'zlashtirish va ularga ijodiy jarayonda qo'llash ko'nikmasini shakllantirishda kerakli bilimlarni yanada mustahkamlash nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: kompoziysiya, ritm, simmetriya, inson plastic anatamoyasi, rang, kompozitsion mazmun, perspektiva, havo uyg'unligi, polotno, sujet, markaz, interyer, ekstteryer, kontrastlik qonuni, etyud.

Kirish: Tasviriy san'atda odam chizish uchun eng murakkab ob'ekt hisoblanadi. Odam tanasining shakllari turli shaxsiy o'ziga xosliklar, ko'plab murakkab va turfa xil uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Naturani planshetning o'rta qismiga joylashtirib, interer bilan uzviy bog'lash vazifasi turadi. Qomatning boshi, oyoqlari planshetga qay tarzda joylashishi, engil chiziqlar bilan ko'zda chamalab belgilab chiqiladi va chiziladi. Qomatni qog'oz yuzasiga to'gri qurishda o'q chiziq o'tkaziladi. Naturani planshetga joylashtirganda tepa qismida pastkisidan ko'proq bo'shliq qoldiriladi. Ikki yon tomonlardan esa deyarli birxil oraliqlar qoldirilishi yiki tasvirni qaysi tomondan rakurs holatda tasvirlashga qarab ikki chetki qismlarda turli darajada masofa ajratilgan bo'ladi. Uni qurishda boshqismining yuqori nuqtasidan oyoq uchiga to'g'ri chiziq tortilib undan tos suyagiga chiziq davom etadi. Elkalar yo'nalishi, tirsak va qo'llar holati, ikki tizzaning bir – biriga munosabati vashu zaylda nuqtalar belgilanib, chiziqlar

tortiladi. Plastik anatomiya to’liq topib tasvirlanish jarayonida inson qomatining ayol yoki erkak qomiti ekanligi xususiyatidan tortib, semiz ozg’inligi, uning yoshi va jismoniy holatini ham to’liq tasvirlab berish zarur.

Ijod qilish uchun tanlangan ustaxona devorlariga namuna tarzda ilingan Usta rassomlar tomonidan ishlangan inson qomatlari aks etgan asarlar tahlil va analiz qilinadi. Ularning postanovkasiga o‘xshatib joylashtirish foydadan xoli emas. Talabalar vazifani qanday ashyoda bajarishni o‘zlarining imkoniyatidan kelib chiqib tanlashadi. Ular shoshmasdan ikki va undan ortiq vaqt mobaynida qoramalar ishslashlari mumkin. Qoramalarni ham turli ashyolarda bajarishlari maqsadga muvofiqdir.

Bir necha o‘nlab qoramalar ishlanib, talabalar o‘zlarini tanlagan nuqtadan ish boshlashib, inson qomatini qonun – qoidalar asosida joylashtirib, engil va och chizilgan chiziqlar yordamida qomatni konstruksiyalashga kirishishadilar. Qomatni konstruktsiyaga asoslangan holatda qurish tasvirni aniq va hatolarsiz chiqishini ta’minlaydi. Ya’ni naturaning xarakterli umumiyo ko‘rinishining konstruksiyasi, qomatning ko‘zga ko‘rinmaydigan orqa tomonlari bilan ko‘rsatish vazifasi turadi. Gavda qismlarining sxematik ko‘rinishlari bular barchasi qomatni to‘g‘ri tasvirlash asosini tashkil etadi.

Qadimgi Yevropaning Italiya Uyg‘onish davrida uzoq seansli ishlangan, aniq chegaralangan rangtasvir va tez ishlangan qorama tushunchalarini uchratamiz. Bu chizma tasvirlarning har bir turi alohida maqsad va vazifalarga ega bo’lib, bularni bajarish juda muhim hisoblanadi. Chunki, J.Vazari shunday yozadi: “Pero, qalam yoki boshqa ashyolarda engil, tez chizilgan, tasvirlarni qorama deb atash mumkin”. Bundan so‘ng biz, qorama atamasini Rangtasvirning birlamchi turi, boshlang‘ich bosqichi, ya’ni qomat holatining joylashishi asarning dastlabki kompozitsiyasini topish uchun, (bo‘lg‘usi asarni) dastlabki ko‘rinishini farqlashga xizmat qiladi deb bilamiz. Rassom ilhomidan qisqa vaqt mobaynida pero, yoki boshqa chizish ashyolarida bajarilgan va o‘z (rassom) fikri, tafakkuri to‘g‘riligini taqqoslash, tekshirish maqsadida chizilgan taqdirda – u qorama deb ataladi”.¹

Shunday qilib qoramamaning asosiylari maqsadi: “qomatning holati” va “yaxlitlik”(umumlashtirish), haqida fikrlab, predmet xarakterini, tashqi dunyo bilan bog‘lash vazifasini o‘taydi. Keyingi barcha yuz yillikda va bizning hozirgi kungacha qorama “ilhom vaqtida” rassomlar tomonidan bajarilib kelinadi. Ular emotsiya, obrazlar orqali tez chizilgan tasvirlarda aniqlanadi.

Rangtasvir tasvir san’atning mustaqil turi bo‘lishidan tashqari rangtasvir, gravyura, plakat, haykaltoroshlik, amaliy bezak san’ati va boshqa san’atlarning asosi

¹ Варнеке Б.В. Плиний об искусстве. Одесса. 1918. С.51.

hisoblanadi. Rangtasvir yordamida bulg‘usi asarning eng birinchi g‘oyasini tasvir orqali mustahkamlanadi.

Oliy o‘quv yurtlarida amaliy mashg‘ulotlar jarayonida rangtasvirida naturaning shakli, plastikasi, proporsiyasi va qurilishi haqida to‘liq tasavvur berilishi zarur. Natura yordamida shakllarni o‘rganish rassom ijodida katta imkoniyatdir. Bundan tashqari ijodkor talabalar naturani idrok qila bilishi ham zarur. Atrofdagi borliq narsalar haqiqatda bizga ko‘ringan kabi emas, masalan, parallel chiziqlar bir-biri bilan uchrashgandek, o‘tkir burchaklar goho o‘tkir, goho o‘tmas aylana esa ellips shakl ko‘rinishida, qadam bo‘yi bino bo‘yidan baland va sjunga o‘xshash holarlarni rangtasvir, perspektiva mashqlarisiz tushunish qiyin.

“Interer” so‘zi binoning ichki ko‘rinishi, masalan, xonaning, zalning va b.h. ma’nosini beradi. Bu tushuncha haqida faqat arxitektura shakllari tushunilmay, balki u mebel, dekorativ bezaklar va boshqa ko‘pgina binoning ichkarisini bezashda ishtirok etuvchi predmetlarni ham anglatadi.

O‘quv ustxonasining burchagida mo‘jazgina interer tashkil etilib unda libossiz natura o‘tirgan yoki tik turgan, chiroli plastik holatda o‘rin egallaydi. Qomatini interer bilan qo‘sib ishlash, dastur bo‘yicha oldnga qo‘yilgan vazifa talabi. Qomat bilan interdagi predmet va jihozlar tematik jihatdan mos bo‘lishi kerak. Albatta postanovkada qomat asosiy ob’ekt bo‘lib, interer uni boyitadigan qo‘sishma ob’ekt hisoblanadi.

So‘ngra, qoidaga ko‘ra intererda har xil yorug‘lik tushish manbai bo‘ladi (deraza, chiroq). Agar derazadan tushayotgan nur tarqoq, kuchsiz bo‘lsa, predmetlar sirtiga birmuncha tekis nur tushadi, elektr chiroqdan nur tushganda, soyalar keskin, kontrastli, ularning chetki chiziqlari aniq bo‘ladi. Chizuvchi fazoviy perspektivaga e’tiborni qaratishi kerak. Muhim narsalardan bular: interdagi ob’ektlar, rang va tus borasida (oqdan qoragacha) faktura borasida ham (metall, yog‘och, oyna, gazlama, marmar va boshqalar) xilma xilligiga e’tibor qaratish zarur.

Ma’lumki, konstruktiv yechim ko‘pchilik kompozitsiyalarning muhim qismi sifatida foydalilanadi. Chunki konstruktiv fikirlash chismatasvir olmaga, odam tanasini juda nozik tekisliklarini ko‘rishni va fikrlashn o‘rgatadi.

Uni tasvirlash, o‘xshatib ifodalash ancha qiyindir. Odam bosh qismiga har xil ko‘rinishlarini turli vaziyatlarda aks ettirish inson tanasi tuzilishi, anatomiysi, o‘ziga xos shakl-shamoyilini o‘rganishni, plastik echimini topishni taqozo etadi. Shuning uchun chizilayotgan odam keksami, yoshmi gavdasining konstruktiv tuzilishini avvalo qalamtasvirini chizib, o‘rganilishi juda muhimdir. Buning uchun mayda xomaki qalam chizmalar bajarish, tahlil qilib o‘rganish lozim. Shundan so‘ng eng maqbul, chiroli, ko‘zga yaxshi tashlanadigan joydan turib tasvirni qog‘ozga tushirish boshlanadi. Unda gavdaning satxda joylashishi kompozitsiya tomonlari puxta o‘ylab chiziladi. Katta shaklni ko‘ribilishlik va tekisliga tushirish alohida e’tiborga qaratiladi, mutanosiblik

barcha narsada o‘z aksini topishi kerak. Ular esa gavdaning har bir bo‘lagi, soya yorug‘ligida namoyon etiladi.

Odam kallasini qurish jarayonida, tanadagi konstruktiv tekisliklarga aloxida e’tibor bilan chiziladi, ayrim kerakli joylarini buktirib ishlanadi. Portretni soya va yorug‘ joylarini yaxlit qilib tus jihatidan ishlab chiqishdan boshlanib, hajmni ko‘rsatishga yordam beruvchi unsurlar-yarimsoya va aks shu'lalarni belgilash bilan davom ettiriladi. Ayniqsa, gavdaning qorin va bel qismlarini konstruktiv tuzulishlariga juda katta etibor beriladi. Ularni «nyuans»lar yordamida ishlash mumkin. Bunda tus o‘zgarishlarining salgina farqi ham hisobga olinadi. Odam boshi murakkab keng ma’no tashuvchi, voqeani aks ettiruvchi bo‘lishi bilan ajralib turadi. Respublikamizda ijod qilgan va qilayotgan rassomlar o‘z ijodlarida odam gavdasini uning go‘zalligini xaqqoniy qilib aks ettirganlar. Ulardan CH.Axmarov, R.Ahmedov, N.Qo‘ziboev, R.Choriev, A.Ikromjonov, M.Nuriddinov, S.Rahmetov, va boshqa ko‘plarni sanab o‘tishimiz mumkin.

Ishning yakuniy qismi – yaxlitlash, ya`ni mayda detallarning bir butunlikka bo`ysundirishdir. Bu ishda asosiy bo`laklarning tus echimiga e`tibor berish kerak. Agar ola bula chiporlik yaxlitlikka xalaqt bersa ularga ishlov berish kerak. Naturani yaxlik ko`rinishga xalaqt berayotgan xar bir bo`lakni o`z joyiga qo`yish kerak. Agar shunday qilmasak, qo`shimcha detallar asosiy ob`ektdan chalg’itib, diqqatni tortadi, yaxlitlikni buzadi. Agar rassom yaxlik ko`rishi o`rgangan bo`lsa, tasvirni oqilona bajaradi. Bu bosqichda gavda siluetiga ham e`tiborni kuchaytirish darkor.

Tasvirda juda nozik tus faqini saqlab qolish kerak. Siluetning ba`zi joylarining kuchaytirib (chiziq orqali) ba`zi joylarni fon bilan qo`shib yuborish kerak. Buni naturaga yaxlit qaraganda ajratib olish mumkin.

Nixoyat, portreti ishlanayotgan odamning ichki psixologiyasini ochishga xam urinib qo`rish mumkin. Bu narsaga detallarni yaxlitlab asosiy xarakterli joylarini bo`rttirish bilan erishish mumkin.

Portret chizmasi portretni yaratish uchun qalam tasvirga alohida ahamiyat berish zarur, qalam tasvir portret yaratishning fundamenti hisoblanadi. O`ylamangki portretni boshqa narsalardan ko`ra tezroq va oson tugatasiz. Boshqa chizmatasvirlar kabi portretning xarakteri massasiga eetibor berishingiz kerak.

Tasviriy san`atda inson qiyofasini tasvirlash qadimdan rassomlarni o`ziga jalb qilib kelgan. Tabiatda inson eng mukammal va serqirra ob`ekt bo`lib hisoblanadi. Shuning uchun ham barcha badiiy o`quv dargohlarida ham inson qiyofasi, uning portretini tasvirlashga ko`plab vaqt ajratiladi. Tirik modelni (yalano`och model’ tasvirini) chizish qiyin vazifa, uni bajarish uchun rassomdan doimiy mashg`ulotlar davomida egallangan malaka talab etiladi.

Tirik modeldan rasm chizishning qiyin tarafi shundaki, bunda model’ qimirlamasdan, bir xil holatda tura olmaydi, ya`ni chizish davomida u bir necha bor

o`z holatini o`zgartiradi. Boshqa tomondan tirik modelda kuzatiladigan suyaklar va mushaklarning yaqqol ajralib turishi, ularning tuzilishi, nisbati, vazifasi va xarakat xarakterini oydinlashtirishga imkon yaratadi. Bundan tashqari model' o`z holatini o`zgartirganida, rassom o`z tasavvuri va xotirasiga asoslanib chizishni davom ettirishi kerak. Bunday ish uslubi juda muhim bo`lib, qalamlar va eskizlar chizishda uning ahamiyati kattadir.

O`quvchilar bir-birlaridan eng kamida model' bo`yiga bir barobar keladigan masofada, naturadan esa eng kamida qomatning uch barobari darajasidagi masofada joylashishlari kerak. Bunday masofa ularga modelni boshdan oyoo`igacha perspektiv o`zgarishlarda ko`rish imkonini beradi.

Rassom tasvirning joylashish o`rnii va o`lchamlarini – rasm kompozitsiyasini belgilaydi. Model' pozasi va xarakatidan kelib chiqqan holda, modelning umumiy holati va model' massasi qalam bilan engil chizib chiqiladi.

Turgan holatdagi model' rasmini chizishni dastlab old tarafdan amalga oshirish maqsadga muvofiqli. Chunki bunday holatda rasm chizish tamoyillarini ochib berish ancha oson kechadi. Oyoq osti va ular orasidagi masofa turgan model'ning tayanch maydoni bo`lib hisoblanadi. Og`irlilik markazidan o`tuvchi vertikal chiziq tayanch maydonidan ham o`tganda model' muvozanat holatida tik turgan deb hisoblanadi. Bundan shuni anglashimiz mumkinki, odam oyoqlari orasini kengroq ochsa, tayanch maydoni kattalashadi va mustahkam muvozanatga ega bo`ladi.

Rasm chizishning dastlabki bosqichida xarakat holati va asosiy nisbatlarni ko`rsatgan holda, butun modelni umumiy ko`rinishini yordamchi chiziqlarda tasvirlash muhimdir. Tasviriylar san`at qonun va qoidalardan bizga ma`lumki, tabiatdagi barcha shakllar geometrik sirtlarga o`xshash shakllar tarkibiga asoslanadi shuning uchun ham ushbu holatga misol tariqasida Dyurer tomonidan geometrik shakllarga asoslanib ishlangan rasmni keltirishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI :

1. Sharipjonov, M. S. O. G. L. (2021). OLIY PYEDAGOGIK TA'LIMDA TALABALARGA MUAMMOLI MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI. *Science and Education*, 2(2), 435-443.
2. Шарипжонов, М. III. (2020). Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчисининг касбий маҳоратларини такомиллаштиришда амалий машғулотларни ташкил этиш методикаси. *Молодой ученый*, (43), 351-353.
3. Шарипжонов, М., & Икромова, М. Д. (2018). TASVIRIY SAN'ATDA ANIMALIZM JANRI. *Научное знание современности*, (5), 94-96.
4. oglu Sharipjonov, M. S. OLIY PYEDAGOGIK TA'LIMDA TALABALARGA MUAMMOLI MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI.
5. oglu Sharipjonov, M. S. OLIY PYEDAGOGIK TA'LIMDA TALABALARGA MUAMMOLI MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI.

6. Baxtiyor, M. U. (2023). A New Approach to Teaching Students Modern Styles and Forms of Majestic Painting Composition. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(12), 69-75.
7. Temirova, M. (2023). THE ABILITY OF THE TEACHER TO APPLY THE TECHNOLOGIES OF INDIVIDUAL WORK WHEN TEACHING STUDENTS THE LESSONS OF SKILLFUL PAINTING. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(3), 177-181.
8. Темирова, М. И. (2022). ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЕ ИСКУССТВО И ЕГО СОДЕРЖАТЕЛЬНАЯ СУЩНОСТЬ. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, 1(2).
9. Temirova Muqaddas, & Turg'unboyeva Maftunaxon. (2023). TASVIRIY SAN'AT FANLARINI MAKTABLARDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10337479>
10. Temirova Muqaddas, & Nazarov Murodjon. (2023). MAHOBATLI RANGTASVIR KOMPOZITSIYASINING ZAMONAVIY USLUBLARI, SHAKLLARINI TALABALARIGA O'QITISHDA YANGICHA YONDASHUV. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10322777>
11. Tyemirova, M. I. Q. (2020). OLIY PYEDAGOGIK TA'LIMDA TALABALARING NATYURMORT KOMPOZISIYASINI TUZISH VA TASVIRLASH KASBIY MAHORATLARINI TAKOMILLASHTIRISH TYEXNOLOGIYALARI. *Science and Education*, 1(7), 582-586.